

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov**

Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analistik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi ..... 9

**A.A.Tolametov**

Umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot ..... 15

**I.R.Jumaniyazov**

Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish ..... 20

**Sh.I.Allamuratov**

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish ..... 24

**N.M.O'rinova, M.I.Muxammadjonova**

Xorijiy ta'limda tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari ..... 30

**N.M.Merganova**

Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish ..... 36

**A.A.Tolametov, M.M.Baxromov**

Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri ..... 40

**Y.U.Egamberdiyeva**

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari ..... 44

**A.Abdulayev, J.Abdullahayev**

Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri ..... 52

**Q.Y.Nazirov**

Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari ..... 57

**T.T.Yusupov**

Kurashchhlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari ..... 61

**Б.Б.Хайтбаева, Ф.А.Алижонова**

Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития ..... 64

**O.N.Madaminov**

Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi ..... 71

**S.Muzafarova**

Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari ..... 74

**N.Sh.Urinova**

Boshlang'ich ta'limda ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli ..... 78

**D.D.Boymirzayeva**

Bo'lajak ta'limga menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlari ..... 83

**I.Ikromov**

Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshidagilar uchun tuzish metodikasi ..... 87

**E.Rahimov**

O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlari ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari ..... 94

**Sh.B.Bekchonova**

Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'limga samaradorligini oshirishga ta'siri ..... 98

**Z.Y.Xamraqulov**

Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari ..... 101

**E.B.Nabiyev**

Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'limga topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati ..... 107

**O.A.Василиченко**

Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера ..... 111



UO'K: 37\_378.096+372.834:343

**JINOYAT HUQUQI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI****СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА****SOCIO-HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF CRIMINAL LAW****Xamraqulov Zafarjon Yigitaliyevich** 

Qo'qon davlat pedagogika instituti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Annotatsiya**

*Maqolada jinoyat huquqi fani rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari tadqiq qilingan. Qadim o'tmishdan boshlab jamiyat a'zolari tomonidan qoralangan xatti-harakatlar shu jamoada qaror topgan odatlар asosida tartibga solib turilgan. Ibtidoi jamiyat davrida to'da a'zolaridan ichki tartibni buzganlar jamoadan haydab yuborilgan. Bu o'sha davr uchun og'ir jazo bo'lib, jamoadan haydalganlar yolg'iz qolgan holda o'lishga mahkum edi. Bunda har bir urug' jamoasi tartibbzarga o'z ichki muhitidagi odatlар asosida chora ko'rgan. Davlatlarning paydo bo'lishi, yozuvning vujudga kelishi, jamoat tartibini qo'riqlovchi hokimiyatning qaror topishi jinoyat va jazo tushunchalarini qat'iy lashuviga olib kelgan. Davlatlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan jinoyat va jazo masalalari ham o'rinn olgan. Qadimgi va o'rta asrlar jinoyat huquqiga xos umumiyl xususiyat – jazolash orqali jamoatchilikni qo'rquv ostida tutib turishdan iborat edi. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida mintaqaga yevropacha huquq tizimi kirib keldi. Asrlar mobaynida amalda bo'lgan musulmon huquqini siqb chiqarish boshlandi. Zamonaqivi jinoyat qonunchiligining taraqqiyotida XX asr muhim o'rinn tutadi. 1994-yil 22-sentabriddagi O'zbekistonning Jinoyat, Jinoyat-ijsroiya, Jinoyat-protsessual kodekslari asosida jinoyat qonunchiligi tizimida mustahkam huquqiy tizim yaratildi. Jinoyat qonunchiligiga doir hujjatlarning qabul qilinishi sohadagi ilmiy tadqiqotlarning rivojiga yo'l ochib beradi.*

**Аннотация**

В статье исследуются социально-исторические основы развития науки уголовного права. С древнейших времен действия, осуждаемые членами общества, регулировались на основе установленных в этом сообществе обычаяев. В период первобытного общества люди, нарушавшие внутренний порядок, изгонялись из общины. Это было сурое наказание по тем временам, и изгнанные из общины были обречены умереть в одиночестве. При этом каждая родовая община принимала меры против нарушителя исходя из обычаяев своей внутренней среды. Появление государства, создание письменности, установление власти по охране общественного порядка привели к ужесточению понятий преступления и наказания. Среди источников, дающих информацию об истории государства, есть вопросы преступлений и наказаний. Общей чертой древнего и средневекового уголовного права было держать общество в страхе посредством наказания. В результате оккупации Россией Средней Азии в регион проникла европейская правовая система. Началось подавление прав мусульман, практиковавшееся на протяжении веков. ХХ век играет важную роль в развитии современного уголовного права. На основе Уголовного, Уголовно-исполнительного и Уголовно-процессуального кодексов Узбекистана от 22 сентября 1994 года в системе уголовного права создана мощная правовая система. Принятие документов по уголовному праву открывает путь для развития научных исследований в этой области.

**Abstract**

*The article examines the socio-historical foundations of the development of the science of criminal law. Since ancient times, actions condemned by members of society have been regulated on the basis of established customs in that community. During the period of primitive society, violators who violated internal order were expelled from the community. This was a severe punishment at that time, and those expelled from the community were doomed to die alone. Moreover, each clan community took measures against the offender based on the customs of its internal environment. The emergence of states, the creation of writing, and the establishment of power to protect public order led to a tightening of the concepts of crime and punishment. Among the sources that provide information about the history of states are issues of crime and punishment. A common feature of ancient and medieval criminal law was to keep society in fear through punishment. As a result of Russia's occupation of Central Asia, the European legal system penetrated the region. The suppression of Muslim rights, practiced for centuries, began. The 20th century plays an important role in the development of modern criminal law. Based on the Criminal, Criminal Executive and Criminal Procedure Codes of Uzbekistan dated September 22, 1994, a powerful legal system has been created in the criminal law system. The adoption of documents on criminal law opens the way for the development of scientific research in this area.*

**Kalit so'zlar:**jinoyat huquqi, jinoyat sodir etish, huquqbazarlik, javobgarlik, jinoyat qonuni, me'yoriy hujjatlar, jazolar, tadqiqotlar.

**Ключевые слова:** уголовное право, совершение преступления, правонарушение, ответственность, уголовное право, нормативные документы, наказания, исследование.

**Key words:** criminal law, commission of a crime, offense, liability, criminal law, regulations, punishment, research.

## KIRISH

Jinoyatchilik va huquqbazarliklar dunyo mamlakatlardagi tinchlik va osoyishtalikka rahna solmoqda. Unga qarshi kurashish davlat siyosati doirasi bilan cheklanmay jamiyatdan katta sa'y-harakatlarni bajarishni talab etmoqda. Bu ilmiy-tadqiqotlar uchun ham muayyan vazifalarni keltirib chiqarmoqda. So'nggi tadqiqotlar ta'lilda fundamental izlanishlarni olib borishni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Insoniyat jinoyatchilikka qarshi kurashishni o'z oldiga maqsad qilib olar ekan, jinoyatning ilmiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyatini yo'qotmaydi. Jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish uchun sohaga taalluqli tajribani o'rganish va xulosalar chiqarishning ahamiyati ortib bormoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Evropada XVII asrda G.Grotsiy, X.Volf, S.Pufendorf jinoiy harakatlarni inson ruhiyatiga aloqador tomonlariga e'tibor qaratishgan. XX asrda rus olimlari jinoyat qonunchiligining nazariy asoslari bo'yicha chuqur tadqiqot ishlari olib borishgan. M.N.Gernet, M.M.Isaev, A.A.Gertsenzon, B.S.Utevskiy, N.D.Durmanov, V.G.Smirnov, Sh.S.Gringauz, I.T.Golyakov, A.N.Traynin va boshqalar jinoyat qonunchiligi tadqiqotida ko'p ish bajarishgan. O'zbekistonda X.S.Sulaymonova, O.X.Rasulov, X.Bakirov, A.Shamansurov, T.R.Saitbaev, A.A.Hamdamov, B.E.Bogdanov, A.Irkaxadjaev kabi olimlar jinoyat tarixi bo'yicha izlanishlar olib borgan.

O'zbekistondagi so'nggi yillarda Sh.Eshmatov, T.Qodirov, G.Ne'matov, R.I.Rahmonov, B.A.Rajabov kabi olimlar jinoyat huquqida yarashuv instituti bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishgan. Huquqshunos olimlarning tadqiqotlari jinoyat huquqi nazariyasining boyishiga xizmat qiladi. Jinoyat va jinoyatchilik bo'yicha ilmiy izlanishlar hozirda ham davom ettirilmoqda. Ushbu maqola mazkur tadqiqotlar davomi sifatida ahamiyatlidir. Maqolada mantiqiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, sistemalilik kabi usullardan foydalanilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Qadimgi Misr davlatida sodir etilgan tartibbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazolar juda og'irligi bilan ajralib turgan. Uning asosiy maqsadi og'ir jazo bilan qo'rqtish orqali davlat boshqaruvi yo'lga qo'yilgan. Bakxoris qonunlariga ko'ra, o'g'irlik uchun qo'lni kesish, shuningdek burnini kesish, qoziqqa o'tqazish, tilini sug'urib olish, mayib qilish, tana a'zosining ayrim qismlarini kastratsiya qilish, qulga aylantirish, ko'zini ko'r qilish jazolari qo'llanilgan. Otasini o'dirgan farzandning tanasidan go'shtlari sug'urib olinib, tikanlarga yotqizilgan, so'ng yoqib yuborilgan [1,73].

Qadimgi Bobilning Xammurapi kodeksida talion tizimi saqlanib qolgan edi. Talion tizimi «ko'z uchun ko'z», «tish uchun tish» printsipiga asoslangan bo'lib, bir odam ikkinchi odamni tishini sindirsa uning ham tishi sindirilgan, ko'zini ko'r qilsa uning ham ko'zi ko'r qilingan. Jarima jazosini qo'llash Misrga nisbatan keng tarqalgan. Bu yerda o'lim jazosi suvgaga cho'ktirish, yoqib yuborish, qoziqqa o'tqazish, osish kabi ko'rinishlarda amalga oshirilgan. Davlat boshqaruviga xos jinoyatlar haqida ham mixxat yozuvlarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, qonunga xi洛 ravishda poraxo'rlik qilgan amaldorlarga harakatiga nisbatan miloddan avvalgi XXIV asrda Shumer podshosi Urugagini tomonidan chek qo'yishga urinishlar bo'lganligi tilga olinadi [2,56].

Hindistonda ordaliya va jamoaviy javobgarlik tamoyillari saqlanib qolgan. Xususan, Manu qonunlarida hiyonatkor ayolni quturgan itlarga tashlash, erkakni esa qizdirilgan temir o'zanda kuydirish jazolari qo'llanilishi ko'rsatilgan [1,149]. Shuningdek, sharmanda qiluvchi: tamg'a bosish, sochini olib tashlash, kastadan haydab yuborish jazolari qo'llanilgan. Tarozi, olov, suv, zahar va qasam bilan sinash – ordaliya usullari bo'lgan.

Qadimgi Xitoya huquqning rivojlanishi ko'proq jinoyat huquqining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Jinoyat tushunchasi inson jinoiy irodasining namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi. Jinoyatning motiv va maqsadi bilan bog'liq tomonlar kun tartibiga chiqdi. Bunda Konfutsiylikning ta'siri yaqqol seziladi. Zero, 8 yoshdan kichik va 70 yoshdan katta keksa kishilar tana jazolaridan ozod qilingan. Jinoyat huquqida javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar ko'zda tutilgan. Talion tamoyili mavjud edi. Keyinchalik jinoyat uchun jazolar og'irlashtirilgan. Ayniqsa, Mu qonunnomasi dahshatli bo'lib, unda uch avlod a'zolarini tayoq bilan o'lguncha urish, mahkumni tanasini belidan

## PEDAGOGIKA

ikkiga bo'lib tashlash, yosh bolalarni ham qamchilab o'ldirib yuborish, suvda qaynatish, olovda ko'ydirish jazolari qo'llanilgan.

Qadimgi Gretsiyada ko'pincha zahar ichib o'lish qo'llanilgan. Ayrim hollarda qilich va arqon berib ulardan birini tanlash imkonи berilgan. Qullarga keskin jazo berilgan, fuqaroga esa yengilroq jazo tayinlangan.

Diniy, davlat, harbiy, oila va axloqqa qarshi jinoyatlar kabi turlarga bo'linish Rimda vujudga keldi. Rim fuqarolariga uzoq vaqt davomida o'lim jazosi qo'llanilmagan. Lekin imperatorlar uni tiklashdi, qullarga nisbatan jazolar og'ir ko'rinishga keltirilgan. Rim huquqida sud-protsessual normalari ham takomillashtirilgan. Qadimgi davr jinoyat huquqining eng rivojlangan tizimi aynan qadimgi Rimda shakllangan.

Qadimgi Rimda imperatorlar butun boshli josuslar armiyasini o'z xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida saqlab turishgan. Qadimgi Rim davlatida XII jadval qonunlarida pora bilan bog'liq holatlar tilga olinadi. Aynan Rim huquqida «corruptire» atamasi shakllangan bo'lib, bu so'z «buzish», «pora evaziga og'dirish degan ma'noni anglatgan [3,81]. Mazkur atama Rim huquqidан zamonaviy terminologiyagacha bo'lgan bosqichni bosib o'tgan va hozirgi «korruptsiya» tushunchasi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Xristian dini Yevropadagi jinoyat huquqi taraqqiyotining umumiyligi masalalariga ayrim o'zgarishlar kiritdi. Bu davrda og'ir jazolarning ayrimlari saqlangan bo'lib, Ch.Bekkaria, I.Bentam kabi o'z davrining mutafakkirlari bunga qarshi chiqishgan. L.Feyerbax bunday harakatlarni amalga oshirgan onalar uchun yengilroq jazo tayinlash taklifini bildirgan. I.Kant esa o'z farzandini o'ldirgan onani jinoyatda ayblab bo'lmasligini ta'kidlagan [4,72].

Rossiyada 1497 va 1550-yilda Sudebniklar qabul qilingan bo'lib, ular ushbu mamlakatdagi jinoyat huquqining rivojlanishiga katta turtki berdi. Sudebniklarda jinoyat tushunchasi takomillashtirildi. Qayta jinoyat sodir etganlik uchun jazo choralar kuchaytirildi. Bu narsa dehqonlarga asoratda saqlab turish uchun juda muhim asos vazifasini bajarib turgan edi.

Rossiyaning jinoyat qonunchiligi Petr I, Yelizaveta Petrovna, Yekaterina II davrida yanada yuksaldi. Jumladan, Yelizaveta Petrovna davrida o'lim jazosini bekor qilishga harakatlar qilindi. Jinoyat huquqida insonparvarlik tamoyillari rivojlantirildi. Yekaterina II jismoniy azob berishga asoslangan jazolar sonini qisqartirdi. Bunday jazoni dastlab voyaga yetmaganlar, so'ngra dvoryanlarga nisbatan qo'llash bekor qilindi. Pavel I davriga kelib yoshi 70 dan oshgan jinoyatchilarga jismoniy azob berish chekka guberniyalarda ham tugatilgan edi.

1934-yilda jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan Madrid konferentsiyasi o'tkazildi. Bu xalqaro jinoyat huquqini tartibga solish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

1937-yilda 20 dan ortiq davlat tomonidan terrorizmni oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi KonVENTSIYA imzolandi. KonVENTSIYA ekstraditsiya haqidagi qoidalarni ham o'z ichiga olgan edi. Mazkur hujjat 24 ta davlat tomonidan imzolangan bo'lishiga qaramay, amaliyatda to'liq foydalanilmadi.

1971-yilda Amerika Davlatlari Tashkiloti tomonidan «Xalqaro xususiyatga ega bo'lgan shaxsga qarshi jinoyat shaklidagi terrorchilikning oldini olish va jazolash to'g'risida»gi KonVENTSIYA qabul qilingan. Ushbu konVENTSIYA ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

1976-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan «Terrorchilik bilan kurashish to'g'risida»gi KonVENTSIYA qabul qilindi. 1978-yilda Janubiy Osiyo mintaqasi hamkorligi tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan «Terrorchilikning oldini olish bo'yicha» KonVENTSIYA qabul qilindi. Qabul qilingan xalqaro hujjatlar davlatlar o'rtasidagi xalqaro jinoyat huquqi sohasining rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Afrika va musulmon huquqi oilalarida jinoyatlar uchun qatl etishning bir necha usullari, jumladan, tana a'zolarini (masalan, o'g'irlik uchun qo'lini) kesib tashlash singari jazolar qo'llaniladi. Kontinental huquq oilasiga kiruvchi davlatlarda o'lim jazosi bekor qilingan bo'lsada, anglosakson huquq oilasiga kiruvchi AQShning 13 ta shtatida o'lim jazosi saqlanib turibdi. Qolgan 37 ta shtatda unga moratoriyl e'lon qilingan.

Markaziy Osiyodagi jinoiy-huquqiy munosabatlar dastlab odad normalariga asoslangan bo'lib, bunda o'sha davrda hukm surgan urug'-qabila munosabatlari katta ahamiyatga ega edi. Jinoyat huquqiga doir ilk ma'lumotlar zardushtiylikning asosiy manbasi – «Avesto»ning «Videvdat» kitobida tilga olinadi. Kitobda jinoyat va jazo instituti asosida jinoiy-huquqiy munosabatlar tartibga solingan bo'lib, ularda qanday harakatlar jinoyat sanalishi yoki sanalmasligi masalalari o'z aksini

topgan. Jumladan, «Avesto»ga ko'ra, zino qoralangan bo'lib, bunday ish qilganlar farzand ko'rishdek oliy insoniy baxtdan mahrum qilingan [5,31]. Bunday zinokorlarga nisbatan tanasining muayyan a'zosi kesib tashlash (kastratsiya) jazosi qo'llanilgan.

O'rta asrlarda jinoiy-huquqiy munosabatlar tartibga solinishida musulmon huquqining barcha manbalaridan foydalanilgan. Fuqarolik, oila, ma'muriy sohaga taalluqli muammoli huquqiy holatlar odat huquqi asosida ham hal etilishiga ruxsat berilgan. Islom dini doirasidagi huquqbazarliklar va jinoyat uchun shariat, fiqh va odat normalari asosida jazo qo'llanilgan.

Markaziy Osiyoda shariat normalarining asoslari jinoyat va jazo tizimida joriy etildi. Musulmon huquqi asosida shakllangan jinoyatlar uchta toifaga ajratilgan edi: 1) hadd orqali jazolanadigan jinoyatlar; 2) xun (qon bahosi) qoidalariga ko'ra jazo beriluvchi jinoyatlar; 3) ta'zir yo'li bilan jazolanuvchi jinoyatlar [6,178]. Birinchi toifadagi jinoyatlar uchun aniq jazolar qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Jumladan, aybdor og'ir jinoyatlar uchun dorga osilishi, o'g'rilik uchun qo'lning kesilishi, zino uchun sazoyi qilinishi kabi holatlar mana shunday aniq jazoli jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Ikkinchisi, qon bahosi bilan jazo berish ko'zda tutilgan jinoyatlar xun (tovon) to'lash bilan bilan bog'liq bo'lib, boshqalarga yetkazilgan zararni qoplash yoki jabrlanuvchining talabi bilan jazolanadigan holatlarni o'z ichiga oladi. Bunda yarashuv instituti normalari ham nazarda tutilgan edi. Uchinchi, ta'zir bilan beriladigan jazolar omma oldida izza qilish maqsadlariga ega bo'lgan qamchi bilan savalash, kaltaklash, jarima to'latish singari jazolar qo'llanilishini o'zida aks ettirgan.

Temur va temuriylar davrida mamlakatdagi jinoyatçilikni oldini olish, huquqbazarliklarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirib borilgan. Xususan, tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temuring uchinchi o'g'li Mironshoh hamda nevaralari Pirmuhammad va Halil sultonlar o'z amalini suiiste'mol qilganlik, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, maishatparastliklari uchun xalq oldida jazoga tortilganlar.

Turkiston general-gubernatorligi shakllanishidan oldin, 1864-yilda Rossiya imperatorligida qabul qilingan hamda Markaziy Osiyo bosib olinishi bilan bu yerda joriy etilgan Jinoyat ishlari bo'yicha sudlovni amalga oshirish ustavi ilk kodifikatsiyalashgan jinoyat qonunchiligi manbasi bo'lgan.

«1926-yil 16-iyunda O'zbekiston SSR ning birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritildi» [7,952]. Ushbu hujjat shariat hamda odat huquqi tamoyillariga amal qilib ish yurituvchi qozilik va ko'chmanchilardagi biylik sudlarining faoliyatini amalda to'xtatdi. Jinoyat kodeksidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yevropacha sud-huquq tizimiga xos tamoyillar paydo bo'ldi. Yangi kodeks sovet davlatining mafkuraviy g'oyalariga asoslangan bo'lib, unda xususiy mulkchilik qoralangan va ijtimoiy munosabatlardagi diniy qadriyatlarga qarshi qaratilgan edi.

1937-yilda ichki ishlar organlari tizimida iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashuvchi (BXSS) tezkor bo'linmalar tashkil etilgan. Ular ko'pincha rahbariyat topshirig'i asosida repressiv harakatlarni amalga oshirib, ilg'or fikrlovchi kishilarni qataq'on qilish bilan shug'ullangan. Bu davrda jinoyat qonunchiligiga sovet mafkurasi singdirildi va u davlat qo'lidagi xavfli quroqla aylandi. I.V. Stalinning davlat rahbarligi yillarda, xususan, 1937-1953 yillar oralig'ida O'zbekistonda 61 ming 799 kishi qamalgan. Shularning 56 ming 112 tasi turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi. 7100 kishi otib tashlandi. Ularga jinoyat honunchiligi bo'yicha turli ayblar qo'yilgan edi.

O'zSSRning jinoyat qonunchiligi 1959-yilga kelib yangilandi. Jinoyat kodeksi va Jinoyat protsessual kodekslari qabul qilindi. Sotsialistik davr mafkurasiga asoslangan sobiq SSSR qonunchiligi ruhida qabul qilingan ushbu kodekslar anchagina qattiq jazolarni nazarda tutar edi. Jumladan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismidan o'r'in olgan 30 ga yaqin jinoyatlar uchun, xususan, avtomobil o'g'irlaganlik uchun o'lim jazosining tayinlanishi joriy qilingan edi.

80-yillarga kelib sobiq Ittifoqda jinoyat qonunchiligini o'zgartirishga harakatlar boshlandi. Bu yangilanayotgan sovet respublikalarining talablariga javob beradigan kodeks bo'lishi taxmin qilindi. 1991-yilda SSSR davlatining barham topishi bu rejaning amalga oshishini to'xtatib qo'ydi.

1994-yil 22-sentabrda O'zbekiston Respublikasida jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya sohalari bo'yicha kodekslar qabul qilindi. Ularda sovet davridan qolgan ko'plab jinoyat turlari chiqarib yuborildi. Ko'p ukladli mulkchilik shakllari amal qiluvchi bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizim butunlay yangicha yondashuvlarni talab qildi. Jinoyat kodeksi avvalgi kodeksiga qaraganda ancha liberal xarakterga ega bo'ldi. Undan surgun va badarg'a jazolari chiqarib tashlanib, takroran jinoyat sodir etish, uzoqqa cho'zilgan va davomli jinoyatlar, jinoyatlar majmui, retsiv jinoyat, voyaga yetmaganlar javobgarligi, tibbiy yo'sindagi majburlov singari yangi tushunchalar kiritildi.

## PEDAGOGIKA

2001-yil 29-avgustdagagi O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun jinoiy-huquqiy munosabatlar tizimiga katta o'zgarishlarni olib kirdi. Yarashilganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikni bekor qilish instituti kiritildi. Iqtisodiy jinoyatlar uchun qo'llaniladigan sanktsiyalar tarkibiga ozodlikdan mahrum qilishga bog'liq bo'limgan jazolarni kiritish imkoniyatlari oshirildi. O'lim jazosi bosqichma-bosqich kamaytirib borildi va tugatildi. Keyingi yillarda ayrim jazolar, jumladan, mol-mulkini musodara qilish, qamoq bekor qilinib, ularning o'rniiga majbuliy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash kabi yengilroq jazolar joriy etildi.

1994-yil 22-sentabrdagi O'zbekistonning Jinoyat, Jinoyat-ijroiya, Jinoyat-protsessual kodekslari asosida jinoyat qonunchiligi tizimida mustahkam huquqiy tizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis tomonidan 2010 29 sentabrda «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi O'RQ-263сон, 2014-yil 14-mayda «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi O'RQ-371сон, 2016-yil 16-sentabrda «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407сон, 2017-yil 3-yanvarda «Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419сон qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining 2020-yil 18-maydagagi «Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida»gi Qarori, Oliy Majlis palatalarining 2018-yil 11-avgustdagagi «Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurash holati to'g'risida»gi 1897-III-sonli qo'shma qarori qabul qilindi.

Yuqorida normativ-huquqiy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligi oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son Farmoni va 2017-yil 14-martdagagi «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-son, 2019-yil 7-fevraldagi «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4166-son qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga 2023-yil 30-aprelda insonga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish, uning shaxs sifatidagi rivojanishi uchun davlat tomonidan shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq muhim o'zgarishlar kiritildi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilik va huquqbazarliklarga qarshi kurashning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jinoyat jamiyat uchun xavfli illat sifatida kishilar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Uning ijtimoiy xavfliligi odamlar o'rtasidagi qo'rquv, ishonchsizlik keltirib chiqarishida namoyon bo'ladi. Sodir etilgan biringina jinoiy harakat katta muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, o'g'irlik sodir etilishi tufayli biror uydan ashyo yoki pulning o'g'irlanishi, bir qancha protsessual harakatlarni amalga oshirilishiga olib keladi. Xattoki, o'g'irlik sodir etgan shaxsni aniqlash va jinoiy oqibatlarni bartaraf etishja jinoyat tufayli yetkazilgan zarardan ko'ra qo'proq sarf-harajatlar bo'lishi mumkin. Sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosining qo'llanilishi natijasida ham mahkumni jazoni ijo etish muassasalarida saqlab turish davlat uchun kattagina mablag'ga tushadi.

Kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish afzal ekanligi barchaga ma'lum bo'lib, jinoyat asoratlarini bartaraf etishdan avval uning kelib chiqishini nazorat ostiga olish davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun foydalidir. Davlatning jinoiy-huquqiy siyosatida jinoyatlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning jinoyatlarini oldini olish muhim o'r'in egallaydi. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik yoshi kattalarniga qaraganda kamroq bo'lishiga qaramasdan, umumiy ko'rsatkichlar kamayib bormayapti. Bu tizimda muammolar mayjudligini namoyon etadi. Ularning oldini olish va yil sayin ko'payib borayotgan jinoyatlar sonini kamaytirish ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda.

## XULOSA

Jinoyatchilikning oldini olishda mamlakatda qonun ustuvorligi va fuqarolarning qonunga itoatkorlik pozitsiyasiga riosa qilishlarining o'mi katta. Bu inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishiga yordam beradi. Jamiyatning har bir a'zosi, u mamlakat fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs bo'lishidan qat'iy nazar, davlat tomonidan kafolatlanadigan umumiy huquq va erkinliklarga ega hisoblanadi. Har bir inson jinoiy tajovuzlardan himoyalanish, o'z

buzilgan huquqlarini sud organlari orqali muhofaza qilish erkinligiga egadir. Mazkur normalar irqiy, diniy, milliy va boshqa shakldagi kamsitishlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Pedagogik ta'limda talabalarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish, huquqiy ongini rivojlanТИRISH va bu orqali jamiyatdagi huquqiy madaniyatni oshirishga erishish uchun jinoyat huquqidан foydalanish zarurligini isbotlashga xizmat qiladi. Jinoyat huquqidан foydalanishda shuning o'zi bilan cheklanish muammoni hal qilmaydi. Ta'limda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlarga asoslangan innovatsion texnologiyalar yanada samaraliroq natijalarga erishish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. -T.: Adolat, 1999. – B. 73.
2. Haydarov M.M. Tezkor-qidiruv faoliyatining tarixi va rivojlanish bosqichlari // Central Asian research journal for interdisciplinary studies.2022, №2, - B.244 / DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-242-249. [www.carjis.org](http://www.carjis.org)
3. Sadikova Yo., Nosirova D. Poraxo'rlik jinoyatlariga qarshi kurashish tarixi // Huquqiy tadqiqotlar jurnali, 2021, №8, - B.9 // DOI:<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2021-8-10>
4. Hakimov K.B. Onaning o'z chaqalog'iini qasddan o'ldirishi uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalarning rivojlanish tarixi // Huquqiy tadqiqotlar jurnali, 2022, 7-jild, №5, - B. 71-72. / DOI: <http://dx.doi.org/10/5281/zenodo.6545368>
5. Muxamadiev X.A. Oilaviy munosabatlarning shakllanish tarixi va uning asosiy manbalari // Huquqiy tadqiqotlar jurnali, 2022, 7-jild, - №5, - B.31. / DOI: <http://dx.doi.org/10/5281/zenodo/6545339>
6. Сюкцияйнен Л.Р., Лихачев В.А. Мусульманское право (Институт устройства и основного права). - М.: Наука, - 1984. - С. 178.
7. Imamov R. O'zbekistonda jinoyat qonunchiligi tarixi (XIX-asr o'rtalari va XX-asrning 90-yillari) // «Scientific Progress» jurnali, 2021, 2-jild, №1. – B. 952.